



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASI



12-avgust
2026

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot”

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi

“MAMLAKATIMIZDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA PARLAMENTNING ROLI”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya





IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 258 sahifa.
2026-yil, avgust*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.

KIRISH

EKOLOGIK QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH VA “YASHIL” TARAQQIYOT BORASIDAGI PARLAMENT NAZORATI



Xamzayev Abdushukur Xudoykulovich
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi
O‘zbekiston ekologik partiyasi fraksiyasining rahbari

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Xonimlar va janoblar!

Jahonda kechayotgan iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, suv resurslari tanqisligi, yerlarning degradatsiyasi va atrof-muhit ifloslanishi kabi ekologik tahdidlar barcha davlatlar oldida umumiy vazifalarni qo‘ymoqda. Bu esa ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda barqaror rivojlanishning huquqiy asoslarini mustahkamlashni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilashni taqozo etmoqda.

“Yashil” taraqqiyotni ta‘minlash zamon talablariga javob beradigan qonunchilik bazasini shakllantirish, uni muntazam takomillashtirib borish hamda qabul qilingan qonunlar ijrosi ustidan samarali parlament nazoratini ta‘minlash bilan chambarchas bog‘liqdir.

Muhim ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan ekologik qonunchilik samaradorligini oshirish muhim omil hisoblanadi.

So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini hayotga keng joriy etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlarning huquqiy poydevorini mustahkamlash hamda ularning ijrosini ta‘minlashda parlamentning o‘rni va mas‘uliyati tobora ortib bormoqda.

Ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va “yashil” taraqqiyotga erishish har qanday davlatning puxta o‘ylangan huquqiy siyosatiga bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, so‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda ekologik sohadagi qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Eng avvalo, 2023-yilda xalqimizning xohish-istaklari asosida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi muqaddimasidagi «mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko‘paytirishga, hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib...» degan jumlar ham bu borada mamlakatimiz o‘zining aniq va mustahkam pozitsiyasiga ega ekanini anglatadi. Bundan tashqari, Bosh Qomusimizda ijtimoiy, iqtisodiy huquqlar qatori «ekologik huquq» tushunchasi kiritildi.

Xususan, fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqi, tabiiy boyliklarni asrab-avaylash hamda kelgusi avlodlar manfaatlarini ta‘minlash davlatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilandi.

Keyingi yillarda o‘rmonlardan foydalanish, yaylovlarni muhofaza qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, ekologik audit, gidrometeorologiya, organik mahsulotlar ishlab chiqarish, ichimlik suvi ta‘minoti hamda suv resurslarini boshqarish sohalarida qabul qilingan qonunlar mazkur yo‘nalishda yaxlit huquqiy tizimni shakllantirishga xizmat qildi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ekologik qonunchilikni takomillashtirishda quyidagi yo‘nalishlar ustuvorlik kasb etdi:

- birinchidan**, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta‘minlash;
- ikkinchidan**, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va oldini olish, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish;
- uchinchidan**, yerdan foydalanish va muhofaza qilish;
- to‘rtinchidan**, yer osti boyliklaridan foydalanish va muhofaza qilish;
- beshinchidan**, suvdan foydalanish va muhofaza qilish;
- oltinchidan**, o‘simlik dunyosidan foydalanish va muhofaza qilish;
- yettinchidan**, hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish;
- sakkizinchidan**, atmosfera havosini muhofaza qilish qonunchiligi;
- to‘qqizinchidan**, gidrometeorologiya sohasi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

2016–2025-yillarning o'zida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida 30 ga yaqin qonun qabul qilinib, ular ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishning zamonaviy tizimini yaratish uchun poydevor bo'ldi.

Jumladan, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "O'rmon to'g'risida", "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari to'g'risida", "Ekologik audit to'g'risida", "Gidrometeorologiya faoliyati to'g'risida", "Organik mahsulotlar to'g'risida", "Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to'g'risida", "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida", "Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to'g'risida"gi yaxlit va yangi tahrirdagi qonunlar hamda Suv kodeksining qabul qilinishi mamlakatimizda ekologik siyosatning huquqiy asoslarini yangi bosqichga olib chiqdi.

Mazkur qonunlar nafaqat tabiiy resurslarni muhofaza qilishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirdi, balki iqlim o'zgarishiga moslashish, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, biologik xilma-xillikni asrash hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatining huquqiy poydevorini mustahkamladi.

Bugungi kunda ekologik qonunchilikning asosiy vazifasi faqat tabiatni muhofaza qilish bilan cheklanmaydi. U investitsiya siyosatini shakllantirish, resurslardan samarali foydalanish, "yashil" texnologiyalarni rag'batlantirish, iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish hamda aholining munosib hayot sifatini ta'minlashning muhim huquqiy omiliga aylanmoqda.

Mamlakatimiz xalqaro huquqning teng huquqli subyekti sifatida bir qator xalqaro hujjatlarga qo'shildi.

Xususan:

Qonunchilik palatasi majlislarida hukumat a'zolarining Qonunchilik palatasi deputatlari savollariga javoblarini eshitish — "Hukumat soati";

davlat organlari rahbarlarining o'z faoliyati masalalari yuzasidan axborotini eshitish;

Qonunchilik palatasi tomonidan davlat organlarining mansabdor shaxslariga qonunlar va davlat dasturlarining ijrosi masalalari yuzasidan parlament so'rovi yuborish;

Qonunchilik palatasining tegishli qo'mitasi tomonidan davlat organlari rahbarlarining axborotini eshitish;

qonun hujjatlarining ijrosi holatini va huquqni qo'llash amaliyotini tegishli qo'mita tomonidan o'rganish hamda qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish;

deputatlik so'rovlari yuborish va boshqa shakllarda amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi va uning deputatlari ham mazkur jarayonlarda faol ishtirok etmoqda.

2025-yil davomida Ekologik partiya fraksiyasi tashabbusi bilan ekologik masalalar yuzasidan 2 marotaba hukumat a'zolarining axboroti eshitildi va davlat organlarining mansabdor shaxslariga 3 marotaba parlament so'rovi yuborildi.

Shu bilan birga, fraksiya yig'ilishlarida sohadagi qonunlar va davlat dasturlarining ijrosi yuzasidan 13 marotaba tegishli mansabdor shaxslarning axborotlari eshitildi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Fraksiyamiz Qonunchilik palatasi deputatlari bilan hamkorlikda kelgusida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunlarni tizimlashtirish, qonunlarda huquqiy tartibga solish mexanizmlarini aniq belgilashga qaratilgan qonun loyihalari ustida ish olib bormoqda.

Jumladan:

ekologik qonunchilikni tizimlashtirish va kodifikatsiyalashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya kodeksini maromiga yetkazish;

"Hayvonlarni shafqatsiz munosabatdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini;

"Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Chiqindilar to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Atrof-muhit monitoringi to'g'risida"gi yangi qonun loyihasini ishlab chiqish oldimizda turgan ustuvor vazifalar hisoblanadi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Xulosa o'rinda aytishimiz mumkinki, Yangi O'zbekistonda ekologik qonunchilikni takomillashtirish va "yashil" taraqqiyotni ta'minlash jarayonida parlament nafaqat qonun qabul qiluvchi oliy vakillik organi, balki qabul qilingan qonunlarning hayotga to'liq va samarali tatbiq etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni amalga oshiruvchi muhim konstitutsiyaviy institut sifatida ham alohida o'rin tutadi.

Ishonchim komilki, mazkur xalqaro konferensiya doirasida bildiriladigan ilmiy yondashuvlar, amaliy takliflar va ilg'or tajribalar ekologik qonunchilikni yanada takomillashtirish, o'zaro tajriba almashish hamda barqaror va "yashil" taraqqiyot maqsadlariga erishish yo'lida muhim muvaffaqiyat maydoni bo'lib xizmat qiladi.

E'tiboringiz uchun rahmat!



MUNDARIJA

AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA EKOLOGIK TA'LIM, JAMOATCHILIK ISHTIROKI VA SHAXSIY JAVOBGARLIK: 2025–2026-YILLARDAGI INSTITUTSIONAL O'ZGARISHLAR TAHLILI.....	16
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich	
BMTNING BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINI MILLIY DARAJADA AMALGA OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA USTUVOR YO'NALISHLAR.....	24
Teshaboyev To'liqin Zakirovich	
YASHIL IQTISODIYOTNI IQTISODIY VA HUQUQIY QO'LLAB-QUVVATLASH, INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI.....	31
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna	
TAKOMILLASHTIRISH: YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI	37
Shamsiddin Allayarov	
EKOLOGIYA SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	45
S. Sh. Utemuratova	
EKOLOGIK BARQARORLIK — YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING MUSTAHKAM POYDEVORI.....	49
G'afforov X. L.	
MENEJMENT VA BIZNES BOSHQARUVIDA EKOLOGIK, YONDASHUV, ESG TAMOIYILLARI, “YASHIL” STRATEGIYA VA KORPORATIV BOSHQARUV MEXANIZMLARI	58
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich	
РОЛЬ ГРУППЫ ДЕПУТАТОВ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ДВИЖЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ	65
Алиханов Борий Батирович Сангинов Саидрасул Сайдакпарович	
YASHIL ISLOHOTLARNI AMALGA OSHIRISH HAMDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA YASHIL PARTIYALARNING GLOBAL AHAMIYATI.....	69
Qo'chqorov Islomjon Nurali o'g'li Xursanov Kamoljon Erkinjon o'g'li	
RESPUBLIKAMIZDA EKOLOGIK SIYOSAT VA XAVFSIZLIK MASALALARI.....	73
Raximov Oybek Raimovich Xofizov Baxriddin Turdievich	
AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA JAMOATCHILIK ISHTIROKI VA TA'LIM IMKONIYATLARI (STEAM YONDASHUVI MISOLIDA).....	76
N. Matkarimova	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR PARLAMENTINI MUHIM DEMOKRATIK INSTITUT SIFATIDA SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI VA ISTIQBOLDAGI REJALAR.....	80
Abdullayev Muxammadqodir Mashxur o'g'li Xushvaqtov Feruzbek Ilxom o'g'li	
СОТРУДНИЧЕСТВО ПАРЛАМЕНТА УЗБЕКИСТАНА С ННО В ПОВЫШЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ НАСЕЛЕНИЯ	83
Сангинов Саидрасул Сайдакпарович	
OROLBO'YI MINTAQASIDA «SUV IQTISODIYOTI» VA «YASHIL OBLIGATSIYALAR» (GREEN BONDS) TIZIMINI YANADA RIVOJLANTIRISHDA PARLAMENT NAZORATI VA QONUNCHILIK MEXANIZMLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	87
Otamuratov Oybek Baxtiyorovich	



INKLYUZIV YONDASHUV ASOSIDA EKOLOGIK TARBIYANI TASHKIL ETISHNING IJTIMOIIY PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	93
Xodjaye va Mohira Mirzahmadovna	
KORXONALARNING BARQAROR RIVOJLANISH TIZIMIDA EKOLOGIK VA IJTIMOIIY KO'RSATKICHLAR AUDITI.....	97
Akbarov Azizbek Abdusattarovich	
O'ZBEKISTONDA XALQARO BIZNESNING BARQAROR RIVOJINI TA'MINLASHDA MARKETING VA YASHIL INNOVATSIYALARNING ROLI VA AHAMIYATI.....	103
Sayfullayeva Nigora Fayzulla qizi	
TOZA HUDUDDAN YASHIL TAFAKKURGA — EKOLOGIK ISLOHOTLARNING AMALIIY NATIJALARI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)	107
Alimardonova Z. M.	
SUV RESURLARIDAN OQILONA FOYDALANISH — BARQAROR TARAQQIYOT OMILI	111
Jo'rayev Komiljon Begmonovich	
Xudoyqulov Avloqul Nurmanovich	
IQLIM O'ZGARISHIGA MOSLASHISH SHAROITIDA SHAHAR VA SANOAT HUDUDLARINI «YASHIL» ZONALASHTIRISHNING HUQUQIIY KAFOLATLARI	114
Berdikulova Munira Faxriddin qizi	
EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA XALQARO HUQUQIIY STANDARTLARNI O'ZBEKISTON QONUNCHILIGIGA IMPLEMENTATSIYA QILISH: XALQARO MAJBURIYATLAR IJROSI USTIDAN PARLAMENT NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	118
Egamberdiyeva Sevara Baxodir qizi	
EKOLOGIK MASALALARDA PARLAMENTLARARO HAMKORLIK VA XALQARO TAJRIBA ALMASHINUVI	123
Ergasheva Nodira Toxir qizi	
IQLIM O'ZGARISHIGA MOSLASHUV SIYOSATIDA FARG'ONA VILOYATINING YEROSTI SUVLARI MONITORINGI.....	127
Abdulxayev Zoxidjon	
O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA PARLAMENT NAZORATINING NATIJADORLIGI: INSTITUTSIONAL MEZONLAR.....	132
Saburova Juldizxan Axmetovna	
O'ZBEKISTONDA IQLIM O'ZGARISHINING AMUDARYO HAVZASI VA OROLBO'YI HUDUDIDAGI SUV RESURLARI HAMDA QISHLOQ XO'JALIGIGA TA'SIRI	137
Mamadiyarov Dilshod Uralovich	
Xodjiyev Alisher Kuldashevich	
IQLIM O'ZGARISHINING ZAYTUN NAVLARINING GULLASHIGA TA'SIRI.....	140
Yormatova D.Y.	
Xaydarkulov S.	
BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINI AMALGA OSHIRISHDA PARLAMENT NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH	143
Jo'rayeva Shahina Narzullayevna	
IQLIM MUAMMOLARI VA ULARNI YUMSHATISHGA DOIR AMALIIY YECHIMLAR.....	146
Mirxoliqova Charos Xabibullaevna	
Qodirova Shahnoza Ziyodulloyevna	
YASHIL BELBOG'LAR NEGA KERAK?.....	149
Yormatova Dilorom Yormatovna	
MAMLAKATIMIZDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA PARLAMENTNING ROLI: XOTIN-QIZLAR ISHTIROKI VA JAMOATCHILIK NAZORATI.....	154
Sharipova Diyora Botirovna	



YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA EKOLOGIK MADANIYAT VA KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI.....	158
--	-----

Toshturdiyev Nurbek Nurali o'g'li
Hakimova Mahbuba



YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA EKOLOGIK MADANIYAT VA KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Toshturdiyev Nurbek Nurali o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti talabasi

E-mail: nurbektoshturdiyev86@gmail.com

Hakimova Mahbuba

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Fizika fakulteti turtori

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ekologik madaniyat, mas'uliyat hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik va metodik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda ta'lim oluvchilarning nazariy bilimlari va amaliy xulq-atvori o'rtasidagi uzilishlar atroflicha o'rganilib, "yashil ko'nikmalar"ni (green skills) ta'lim standartlariga integratsiyalash yo'llari ko'rsatib berilgan. Shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari, geoinformatsion tizimlar va amaliy monitoring usullarining ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'zni asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari asosida uzluksiz ta'lim bosqichlarida ekologik savodxonlikni oshirish va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, uzluksiz ta'lim, ekologik madaniyat, amaliy ko'nikmalar, yashil ko'nikmalar (green skills), ekologik ta'lim, barqaror rivojlanish.

Abstract. This thesis analyzes the pedagogical and methodological foundations for developing environmental culture, responsibility, and practical skills at all levels of the continuing education system in the context of the transition to a green economy. The study examines in detail the gaps between learners' theoretical knowledge and their practical environmental behavior and identifies ways to integrate "green skills" into educational standards. It also substantiates the role of modern information technologies, geographic information systems, and practical monitoring methods in improving the effectiveness of education. Based on the research findings, scientific and practical recommendations have been developed to enhance environmental literacy and develop practical skills at different stages of continuing education.

Keywords: green economy, continuing education, environmental culture, practical skills, green skills, environmental education, sustainable development.

Аннотация. В тезисе проанализированы педагогические и методические основы формирования экологической культуры, ответственности и практических навыков на всех этапах системы непрерывного образования в условиях перехода к зелёной экономике. В исследовании подробно изучены разрывы между теоретическими знаниями обучающихся и их практическим экологически ответственным поведением, а также определены пути интеграции «зелёных навыков» (green skills) в образовательные стандарты. Кроме того, обоснована роль современных информационных технологий, геоинформационных систем и методов практического мониторинга в повышении эффективности образования. На основе результатов исследования разработаны научно-практические рекомендации, направленные на повышение экологической грамотности и развитие практических навыков на различных этапах непрерывного образования.

Ключевые слова: зелёная экономика, непрерывное образование, экологическая культура, практические навыки, зелёные навыки (green skills), экологическое образование, устойчивое развитие.

KIRISH

Atrof-muhitning global miqyosda o'zgarishi, resurslar tanqisligining ortishi hamda iqlim inqirozi fonida dunyo mamlakatlari barqaror rivojlanishning yangi modeli — "yashil iqtisodiyot" tamoyillariga faol o'tmoqda. Yashil iqtisodiyotga o'tish faqatgina sanoat va energetika tarmoqlarini modernizatsiya qilish yoki muqobil energiya manbalarini joriy etish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon, eng avvalo, jamiyat a'zolarining ekologik



dunyoqarashi, iste'mol madaniyati hamda mas'uliyatli xulq-atvorini shakllantiruvchi inson kapitalini rivojlantirishni talab etadi [1].

Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda uzluksiz ta'lim tizimi (maktabgacha, umumiy o'rta, professional hamda oliy ta'lim) hal qiluvchi institutsional bo'g'in hisoblanadi. Jamiyatda barqaror ekologik madaniyatni shakllantirish shunchaki nazariy axborotlarni o'zlashtirish orqali amalga oshmaydi. Asosiy e'tibor ta'lim oluvchilarda kundalik va kasbiy faoliyatda resurslarni tejash, atrof-muhit holatini to'g'ri baholash hamda ekologik xatarlarni kamaytirish imkonini beruvchi "yashil ko'nikmalar"ni (green skills) tizimli rivojlantirishga qaratilishi lozim [2].

Biroq zamonaviy ta'lim amaliyotini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ta'lim oluvchilarning nazariy ekologik xabardorligi va ularning amaliy xulq-atvori o'rtasida sezilarli uzilish mavjud. O'quv dasturlarida taqdim etilayotgan ekologik bilimlarning aksariyat qismi deklarativ xarakterga ega bo'lib, mahalliy ekologik hamda gidrometeorologik muammolarni (suv resurslari tanqisligi, havo sifati, chiqindilarni saralash hamda hududiy iqlim o'zgarishlari) hal etishga yo'naltirilgan amaliy faoliyat bilan yetarlicha bog'lanmagan [3].

Shu sababli, uzluksiz ta'lim bosqichlarida ekologik madaniyatni shunchaki ma'lumot berish orqali emas, balki amaliy va raqamli monitoring, loyihaviy ta'lim hamda fanlararo integratsiya usullari orqali shakllantirishning ilmiy-pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biridir. Ushbu tadqiqotning maqsadi uzluksiz ta'lim tizimida ekologik madaniyat va amaliy ko'nikmalarni bosqichma-bosqich rivojlantirishning samarali usullarini nazariy hamda metodik jihatdan asoslab berishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Uzluksiz ta'lim tizimida ekologik madaniyat va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish usullarini tadqiq etishda kompleks va tizimli yondashuv metodologiyasidan foydalanildi. Tadqiqot jarayoni bir-biri bilan mantiqiy bog'langan quyidagi ilmiy-metodik usullarga asoslandi:

1. Tizimli va qiyosiy-pedagogik tahlil usuli

Ushbu usul orqali uzluksiz ta'limning har bir bosqichidagi (maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim) davlat ta'lim standartlari hamda o'quv dasturlarida ekologik komponentlarning aks etish darajasi o'rganildi. Xalqaro "Barqaror rivojlanish uchun ta'lim" (Education for Sustainable Development — ESD) konsepsiyalari hamda milliy ta'lim tajribasi qiyosiy tahlil qilinib, "yashil ko'nikmalar"ni (green skills) ta'lim mazmuniga integratsiyalash imkoniyatlari baholandi [4].

2. Empirik va sotsiologik kuzatuv usullari

Ta'lim oluvchilarning ekologik bilim darajasi va amaliy xulq-atvori o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish maqsadida umumta'lim maktablari o'quvchilari, professional ta'lim va oliy ta'lim muassasalari talabalari hamda pedagogik kadrlar o'rtasida maqsadli so'rovnomalar va intervyular o'tkazildi. So'rovnomalar ta'lim oluvchilarning nazariy bilimlari, resurslarni tejash borasidagi kundalik ko'nikmalari hamda ekologik mas'uliyat ko'rsatkichlarini aniqlashga yo'naltirildi.

3. Tizimli modellashirish va fanlararo integratsiya

Uzluksiz ta'lim bosqichlarining yosh va kasbiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ekologik madaniyatni shakllantirishning tabaqalashtirilgan modeli ishlab chiqildi. Bunda ekologik bilimlarni faqat alohida fan sifatida emas, balki tabiiy, aniq va ijtimoiy-gumanitar fanlar (geografiya, biologiya, kimyo, iqtisodiyot va huquqshunoslik) tarkibiga mazmunan singdirish usullari modellashirildi.

4. Amaliy-loyihaviy va raqamli monitoring metodlari

Tadqiqotda o'quv jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, geoinformatsion tizimlar (GIS) hamda masofadan zondlash ma'lumotlarini joriy etish orqali talabalarda atrof-muhit va gidrometeorologik jarayonlarni tahlil qilish hamda amaliy loyihalar (Project-Based Learning — PBL) ustida ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligi baholandi [5].

TAHLIL VA NATIJALAR

Uzluksiz ta'lim tizimida ekologik madaniyat va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha o'tkazilgan tahlillar va pedagogik kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, ta'lim samaradorligi bevosita har bir ta'lim bosqichining yosh xususiyatlari, ta'lim oluvchilarning psixologik-pedagogik tayyorgarlik darajasi va qo'llanilayotgan metodika xarakteriga bog'liq.

Tadqiqot natijasida uzluksiz ta'lim bosqichlarida ekologik madaniyatni tabaqalashtirilgan va bosqichma-bosqich shakllantirishning ilmiy-amaliy modeli hamda har bir bosqich uchun xos bo'lgan kompetensiyalar matritsasi ishlab chiqildi.



1-jadval

Uzluksiz ta'lim bosqichlarida ekologik ko'nikmalarni shakllantirish bosqichlari va pedagogik usullar¹

Ta'lim bosqichi	Asosiy maqsadi va yo'nalishi	Shakllantiriladigan amaliy ko'nikmalar («Green skills»)	Tavsiya etiladigan pedagogik va metodik usullar
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim	Tabiatga mehr, emotsional bog'liqlik hamda resurs tejoychi dastlabki ko'nikmalarni uyg'otish.	Suv va elektr energiyasini tejamkorlik bilan sarflash, tabiat hodisalarini kuzatish va o'simliklarni parvarish qilish.	O'yin texnologiyalari, tabiat qo'ynida ekskursiyalar, vizual interaktiv ko'rgazmalar va ertak terapiyasi [4].
Umumiy o'rta ta'lim (5–9-sinflar)	Ekologik bilimlar bazasini kengaytirish va sabab-oqibat aloqadorligini anglash.	Chiqindilarni saralash, atrofdagi ekologik holatni kuzatish, maktab hududini ko'kalamzorlashtirish, energiya samaradorligi.	Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, kichik tadqiqotlar, mantiqiy interaktiv o'yinlar [5, 8].
O'rta maxsus va professional ta'lim	Kasbiy ekologik mas'uliyatni shakllantirish va «yashil» standartlarni o'zlashtirish.	Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishda resurs tejoychi va texnik-ekologik standartlarga rioya etish, ekologik audit asoslari.	Case-study (vaziyatli tahlil) usuli, ishlab chiqarish amaliyotida ekologik xavfsizlik va resurs tejash darslari [9].
Oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim	Ilmiy-analitik fikrlash, ekologik va gidrometeorologik jarayonlarni prognozlash hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish.	Geoinformatsion tizimlar (GIS) bilan ishlash, ekologik xatarlarni baholash, «yashil» loyihalarni va iqlimiy modellarni ishlab chiqish.	Muammoli ta'lim (PBL), GIS-modellashtirish, dala va laboratoriya tadqiqotlari, ilmiy-amaliy loyihalar [6, 10].

O'tkazilgan tahlillar va o'quv jarayoni monitoringi natijasida an'anaviy hamda zamonaviy ta'lim metodlarining ta'lim oluvchilar dunyoqarashiga ta'siri bo'yicha quyidagi muhim qonuniyatlar aniqlandi:

Aksiologik (qadriyatga yo'naltirilgan) uzilish: An'anaviy ma'ruza va yodlashga asoslangan ta'lim usullari, avvalo, nazariy bilimlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Biroq bunday bilimlarning ta'lim oluvchilarning kundalik va kasbiy xulq-atvori, resurslarni tejash odatlari hamda ijtimoiy mas'uliyatiga ta'siri cheklangan bo'lishi mumkin.

Interaktiv va amaliy-loyihaviy usullarning samaradorligi: O'quv jarayoniga loyihaga asoslangan ta'lim, muammoli ta'lim hamda raqamli monitoring usullari joriy etilganda, ta'lim oluvchilarning ekologik muammolarni tushunish va resurs tejoychi amaliy harakatlarni bajarish ko'rsatkichlari an'anaviy yondashuv qo'llangan guruhlariga nisbatan yuqoriroq bo'lgani kuzatildi [8].

Raqamli vositalarning analitik roli: Oliy va professional ta'lim tizimida atrof-muhit holatini baholashda geoinformatsion tizimlar, masofadan zondlash va raqamli xaritalash texnologiyalaridan foydalanish talabalarning ekologik madaniyati, hududiy iqlim o'zgarishlari va suv resurslari dinamikasini tahlil qilish hamda prognozlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [10].

Tadqiqot va tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot sharoitida uzluksiz ta'lim tizimida ekologik madaniyatni shakllantirish shunchaki alohida fanni o'qitish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida mazmuniy, metodik va institutsional transformatsiyani talab etadigan murakkab va ko'p qirrali pedagogik mexanizmdir [5].

Ayniqsa, olingan tahliliy ma'lumotlar quyidagi muhim masalalar va ilmiy-metodik yo'nalishlarni chuqur muhokama qilish zaruriyatini ko'rsatmoqda:

1. Fanlararo integratsiya va fanlararo va transdisiplinar yondashuv

Ekologik bilimlarni faqat «Ekologiya» yoki «Atrof-muhitni muhofaza qilish» fanlari doirasida o'qitish kutilgan natijalarni to'liq ta'minlamasligi mumkin. Shu sababli, ekologik kompetensiyalarni biologiya, kimyo, geografiya, fizika, iqtisodiyot, huquqshunoslik va axborot texnologiyalari kabi fanlar mazmuniga integratsiya qilish maqsadga muvofiq [8]. Masalan, aniq va tabiiy fanlar darslarida resurslarni tejash va iqlimiy jarayonlarning fizik-kimyoviy asoslari o'rgatilsa, iqtisodiyot va huquq darslarida «yashil» biznes modellar hamda ekologik xulq-atvorning ijtimoiy-huquqiy mas'uliyati yoritilishi lozim.

¹ Manba: muallif ishlanmasi.



2. “Ekologik bilim”dan “ekologik faoliyat va xulq-atvor”ga o’tish

Tadqiqotimizda aniqlangan eng asosiy muammolardan biri — bu ta’lim oluvchilarning nazariy bilimlari va ularning amaliyotdagi harakatlari o’rtasidagi uzilishdir. Bu holat jahon ilmiy adabiyotlarida “Knowledge-Action Gap” (bilim va harakat o’rtasidagi tafovut) deb nomlanadi [7]. Ushbu tafovutni bartaraf etish uchun ta’lim muassasalarining o’zida “yashil” muhit va infratuzilmani yaratish zarur. Agar maktab yoki OTMda chiqindilarni saralash, energiyani tejash yoki suvni qayta ishlatish imkoniyati va namunasi bo’lmasa, berilgan nazariy bilim amaliy ko’nikmaga aylanmaydi.

3. Raqamlashtirish va amaliy monitoring vositalarining o’rni

Oliy va professional ta’lim bosqichida ekologik madaniyatni shakllantirishda geoinformatsion tizimlar (GIS), masofadan zondlash hamda gidrometeorologik monitoring ma’lumotlaridan foydalanish muhim mantiqiy burilish hisoblanadi [10]. Talabalar nazariy ma’ruzalar o’rniga o’z hududlaridagi havo sifati, suv resurslari kamayishi yoki yerlarning degradatsiyasini raqamli xaritalar va real ma’lumotlar orqali tahlil qilganda, ularda ekologik muammolarga nisbatan tanqidiy va analitik fikrlash shakllanadi.

4. Kadrlar tayyorlash va o’qituvchilarning “yashil” kompetensiyasi

Pedagog kadrlarning ekologik va metodik tayyorgarligi yetarli darajada bo’lmaganda, zamonaviy o’quv dasturlarining samaradorligi pasayishi mumkin [9]. Shu sababli, uzluksiz ta’limda ekologik madaniyatni rivojlantirishni maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilari, maktab o’qituvchilari hamda OTM professor-o’qituvchilarining ekologik va raqamli kompetensiyalarini oshirish bilan uyg’un holda olib borish maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Uzluksiz ta’lim tizimida ekologik madaniyat va amaliy ko’nikmalarni shakllantirish yashil iqtisodiyotga o’tish sharoitida barqaror va mas’uliyatli jamiyatni barpo etishning asosiy poydevori hisoblanadi. Tadqiqot natijalari va o’tkazilgan tahlillar shuni ko’rsatdiki, faqat nazariy ma’lumot berishga asoslangan an’anaviy ta’lim modellari ta’lim oluvchilarning kundalik xulq-atvori va kasbiy ko’nikmalarini rivojlantirishda kutilgan samarani har doim ham to’liq ta’minlamasligi mumkin.

Olingan ilmiy va metodik xulosalarga tayanib, uzluksiz ta’lim tizimida ekologik madaniyat hamda “yashil ko’nikmalar”ni (green skills) samarali rivojlantirish bo’yicha quyidagi amaliy taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

Ta’lim standartlarini modernizatsiya qilish va fanlararo integratsiya: uzluksiz ta’limning barcha bosqichlarida davlat ta’lim standartlariga ekologik kompetensiyalar hamda “yashil ko’nikmalar”ni muhim komponent sifatida bosqichma-bosqich integratsiya qilish tavsiya etiladi.

“Yashil ta’lim muassasasi” (Green School / Green Campus) modelini joriy etish: maktab, professional va oliy ta’lim muassasalarida resurs tejovchi texnologiyalarni (quyosh panellari, suvni tejovchi uskunalar, chiqindilarni saralash tizimlari) o’rnatish orqali ta’lim oluvchilar uchun amaliy va ko’rgazmali namuna muhitini yaratish.

Amaliy-loyihaviy va raqamli monitoring ta’limiga o’tish: oliy va professional ta’lim tizimida nazariy va amaliy mashg’ulotlar nisbatini muvozanatlashtirish, o’quv rejalariga geoinformatsion tizimlar, masofadan zondlash, suv va atmosfera havosi monitoringi hamda hududiy ekologik loyihalarni kengroq joriy etish maqsadga muvofiq.

Pedagog kadrlar malakasini oshirish: barcha ta’lim bosqichlari o’qituvchi va tarbiyachilari uchun ekologik va raqamli savodxonlik, zamonaviy interaktiv metodikalar bo’yicha maxsus qayta tayyorlash modullarini yo’lga qo’yish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi “2019–2030-yillar davrida O’zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o’tish strategiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PQ-4477-son qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/-4539502> (murojaat sanasi: 02.08.2026).
2. International Labour Organization. *Skills for a Greener Future: A Global View*. — Geneva: International Labour Office, 2019. — ISBN 978-92-2-031440-1. — URL: <https://www.ilo.org/publications/skills-greener-future-global-view> (murojaat sanasi: 02.08.2026).
3. Sterling S. *Sustainable Education: Re-visioning Learning and Change*. — Totnes: Green Books for the Schumacher Society, 2001. — 94 p. — ISBN 1-870098-99-4.
4. UNESCO. *Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives*. — Paris: UNESCO, 2017. — ISBN 978-92-3-100209-0. — DOI: 10.54675/CGBA9153. — URL: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000247444> (murojaat sanasi: 02.08.2026).



5. UNESCO. *Education for Sustainable Development: A Roadmap*. — Paris: UNESCO, 2020. — 66 p. — ISBN 978-92-3-100394-3. — DOI: 10.54675/YFRE1448. — URL: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000374802> (murojaat sanasi: 02.08.2026).
6. Bell S. Project-Based Learning for the 21st Century: Skills for the Future // *The Clearing House: A Journal of Educational Strategies, Issues and Ideas*. — 2010. — Vol. 83, No. 2. — P. 39–43. — DOI: 10.1080/00098650903505415.
7. Kollmuss A., Agyeman J. Mind the Gap: Why Do People Act Environmentally and What Are the Barriers to Pro-Environmental Behavior? // *Environmental Education Research*. — 2002. — Vol. 8, No. 3. — P. 239–260. — DOI: 10.1080/13504620220145401.
8. Wiek A., Withycombe L., Redman C. L. Key Competencies in Sustainability: A Reference Framework for Academic Program Development // *Sustainability Science*. — 2011. — Vol. 6, No. 2. — P. 203–218. — DOI: 10.1007/s11625-011-0132-6.
9. United Nations Economic Commission for Europe. *Learning for the Future: Competences in Education for Sustainable Development*. — Geneva: UNECE, 2012. — URL: <https://unece.org/environment-policy/publications/competences-esd> (murojaat sanasi: 02.08.2026).
10. Kerski J. J. The Implementation and Effectiveness of Geographic Information Systems Technology and Methods in Secondary Education // *Journal of Geography*. — 2003. — Vol. 102, No. 3. — P. 128–137. — DOI: 10.1080/00221340308978534.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Maqsudov Hasan

2026. № 4-maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

